

**DARS KUZATISH VA UNING TAHLILI****Baxramova Vasfiya, Abduraxmanov Anvarbek***Respublika musiqa va san'at kolleji*

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ularning ongiga dunyoqarash tuyg'ularini singdirish va rivojlantira borishning asosiy andozasi- darsdir.

Dars kuzatish va uning tahlil qilishdan asosiy maqsad. O'qituvchining o'quv-tarbiyaviy ishlari sifatini ko'tarish, o'quvchilarni ko'nikma malakalarini yaxshilashdir. O'qituvchining dars davomidagi erishgan yutuqlari hamda yo'l qo'ygan kamchiliklarini aniqlash, bu kamchiliklarni qanday bartaraf etish usullarini ko'rsatib, uslubiy yordam berishdir. Buning uchun eng asosiy vazifalardan biri o'quvchilarning bilim va ko'nikma egallashlarida ijobiy va salbiy ta'sir etayotgan holatlarni, darsning tarbiyaviy tomonlari davlat talblarining bajarilishiga qaratish lozim.

Shularni hisobga olib, dars kuzatish va uni tahlil qilishga kirishishdan oldin har bir fanning dasturidagi o'qitirish xatini, va kuzatiladigan mavzuga nisbatan dastur talabini, mavzuning o'zini har bir kuzatuvchi yaxshi bilishi kerak. Bulardan tashqari sinf jurnalidan o'tgan darsda o'tilgan mavzuni, berilgan vazifa mavzuini, o'quvchilar baholdarini, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning baholarini aniqlashi lozim.

Kuzatuvchi kuzatiladigan fanning metodik jurnali bilan, xalq ta'limi vazirligi, xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan yuborilgan xatlar, direktor, direktorning ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, metodik birlashma boshlig'ining shu o'qituvchining darsi haqidagi tahlililari bilan tanishishi lozim.

Hozirgi zamon darsiga bo'lgan didaktik talablar, shu fanga taalluqli qo'shimcha adabiyotlar, fanning yutuqlari, pedagogika va psixologiya fanining erishgan yutuqlari bilan tanishmasdan turib o'qituvchiga ilmiy asoslangan, darsni tashkil etish va uyushtirish usullarini takomillashtirish borasmida yordam berish mumkin emas.

Darsni mavzusini kuzatish uchun aloxida savollar tuziladi. Tajribasi o'rganiladigan o'qituvchilarga savollar berib, shu savollar asosida darsni kuzatish mumkin. Masalan:

1. Muammoli xolatni vujudga keltirish, o'quvchilarga muammolar masalasini tushuntirish, o'quvchilarga yo'lanmalar berish va uni bajartirish.

2. Muammoli savollarni oson yoki qiyinligi masalani xal qilinishidan aniqlash, masalaning mazmunini o'quvchilarga tushuntirish, masalani xal qilish uchun reja tuzish

1.3. Muammoli masalani xal qilish uchun ijobiy yondashish: yechimni mumkin bo'lgan variantini tushuntirish, yechimning oson eng ung'ay variantini tanlash.

2.4. Ishning yakuniga bosqichlab borish muammoli masalani yechish rejasini tahlil qilish, yechimni tahlil qilish.

3.5. Darsda o'quvchilarning muammoli masalani hal qilib borish borasida ishlash usullari, ya'ni yakkama-yaka gurux.

4.6. Ishning davomini bajarish uchun uyga vazifa berish.

5.7. O'quvchilarning rahbatlantirish usullari.

6.8. Darsning yakuni, xulosalash.

7.9. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini baholash.

8.10. Ushbu mavzu bo'yicha tavsiya qilingan sinfdan tashqari uqish uchun adabiyotlar.

O'qituvchiga yuqoridagi reja berilsa, o'qituvchi puxta tayyorgarlik kuradi, o'quvchilar cho'qur va puxta bilim olgan bo'ladilar. O'qituvchi bu yutuqlarni yanada mustaxkamlashga xarakat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bugayev A.I. «O'rta maktabda fizika o'qitish»
2. Glazunov A.T. «O'rta maktabda fizika o'qitish»
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.kasu.uz](http://www.kasu.uz)